

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Jo'rayeva Umidaxon Mashrabjonovna

Namangan viloyati Norin tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 93 146 98 88

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy innovatsion metodlari ilmiy asosda yoritiladi. Yozma nutqning nazariy asoslari, psixolingvistik jarayonlar, yozuv malakasining bosqichlari va o'quvchilarning yosh xususiyatlari tavsiflanadi. Klaster metodi, INSERT texnologiyasi, konsept xaritalar, ijodiy diktant, erkin yozish mashqlari, loyiha asosida yozish (Project-Based Writing), raqamli vositalardan foydalanish, o'quvchilararo baholash (peer-review), o'yin asosida yozish strategiyalari kabi metodlarning mazmuni, amaliy qo'llanishi va samaradorligi batafsil tahlil etiladi. Har bir metod bo'yicha namunaviy dars ishlanmalari, baholash mezonlari, o'quvchilarning umumiy yozuv ko'nikmalariga ta'siri va o'qituvchining metodik yondashuvlari misollar bilan izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *Yozma nutq, boshlang'ich sinf, innovatsion metodlar, klaster, INSERT, konsept xarita, ijodiy diktant, erkin yozish, loyiha asosida ta'lim, raqamli ta'lim, matn yaratish, yozuv texnologiyalari.*

Аннотация: *В статье рассматриваются современные инновационные методы формирования и развития письменной речи учащихся начальной школы на научной основе. Описываются теоретические основы письменной речи, психолингвистические процессы, этапы формирования навыков письма и возрастные особенности учащихся. Подробно анализируются содержание, практическое применение и эффективность таких методов, как кластерный метод, технология INSERT, концептуальные карты, творческий диктант, упражнения по свободному письму, проектное письмо, использование цифровых инструментов, рецензирование, игровые стратегии письма. Для каждого метода приведены примерные планы уроков, критерии оценки, влияние на развитие общих навыков письма учащихся и методические подходы учителя с примерами.*

Ключевые слова: *Письменная речь, начальная школа, инновационные методы, кластер, INSERT, концептуальная карта, творческий диктант, свободное письмо, проектное обучение, цифровое обучение, создание текста, технологии письма.*

Abstract: *This article discusses modern innovative methods for the formation and development of written speech in primary school students on a scientific basis. The theoretical foundations of written speech, psycholinguistic processes, stages of writing skills and age characteristics of students are described. The content, practical application and effectiveness of such methods as the cluster method, INSERT technology, concept maps, creative dictation, free writing exercises, project-based writing, the use of digital tools, peer-review, and game-based writing strategies are analyzed in detail. For each method, sample lesson plans, assessment criteria, impact on students' general writing skills and teacher's methodological approaches are explained with examples.*

Keywords: *Written speech, primary school, innovative methods, cluster, INSERT, concept map, creative dictation, free writing, project-based learning, digital learning, text creation, writing technologies.*

Yozma nutq o'quvchining fikrlash jarayoni, til madaniyati, lug'at boyligi va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatini ifoda etuvchi eng asosiy o'quv faoliyatlaridan biridir. Boshlang'ich sinfda yozma nutqni shakllantirish — o'quvchilarning keyingi barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga asos bo'ladigan poydevordir. Chunki yozma nutq orqali o'quvchi tushunchalarni tizimlaydi; fakt va fikmi ajratadi; matn tuzishni o'rganadi; fikrini mantiqiy izchillikda ifodalaydi; ijodiy tafakkumi rivojlantiradi. An'anaviy diktant, ko'chirish, bayon kabi yozma ishlar bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. AXBOROT asrining ta'lim talablari o'qituvchidan innovatsion, interfaol, ijodiy, o'quvchini faol ishtirokchi qiluvchi metodlarni qo'llashni talab qiladi. Mazkur maqola ana shunday innovatsion metodlarning mazmuni va samaralarini o'rganishga bag'ishlangan.

I. Yozma nutqni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari.

1. Yozma nutq tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Yozma nutq — bu o'quvchining yozuv orqali boshqalarga murojaat qilishi, fikrlarini tartibli va tushunarli ifodalash jarayonidir. Yozma nutqni shakllantirish quyidagi komponentlardan iborat:

1. Grafematik kompetensiya — harflarni to'g'ri yozish.
2. Orfografik kompetensiya — imlo qoidalariga amal qilish.
3. Leksik kompetensiya — so'z tanlash, boy lug'atdan foydalanish.
4. Sintaktik kompetensiya — gap qurish, gaplarni bog'lash.
5. Mantiqiy bog'liqlik — kirish–rivoj–xulosa.
6. Uslubiy kompetensiya — ifodali yozish, mazmunni kengaytirish.

Boshlang'ich sinfda ushbu ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

II. Innovatsion metodlarning mazmuni va amaliy qo'llanishi. Quyida yozma nutqni rivojlantirishda eng samarali innovatsion metodlar batafsil ochib beriladi.

1. Klaster metodi. Metodning maqsadi o'quvchilarda mavzu bo'yicha asosiy g'oyalarni to'plash, ular orasidagi bog'lanishni aniqlash, matn yaratish uchun tayanch so'zlar tizimini shakllantirish. Amaliy qo'llanishi: O'qituvchi doskaga markaziy so'zni yozadi: masalan, "Bahor", "Oila", "Hayvonlar". O'quvchilar shu so'zdan tarqaladigan fikrlarni shoxlanma tarzda yozadilar. Har bir shoxcha — kelajak matnning bir bo'limi. Masalan:

Mavzu: "Bahor". → Havo isiydi → Gullarning ochilishi → Qushlar qaytadi → Daraxtlar kurtak chiqaradi → Bayramlar.

Bu metod natijasida o'quvchi klaster asosida reja tuzishni, tartibli matn yozishni o'rganadi.

2. INSERT metodi. Metodning mohiyati — o'quv matni bilan ishlashda belgilash, fikrlash va izoh yozish metodidir. Belgilarning soddalashtirilgan varianti: ✓ — bilaman, ? — tushunmadim, ! — qiziq fikr, — yangi ma'lumot.

Amal qilish tartibi. 1. O'quvchi matnni o'qiydi. 2. Belgilar qo'yadi. 3. Belgilar asosida 3–4 gapli yozma izoh yozadi. Masalan, "Bahor kelishi" matni asosida: ✓ Bahorda havo isiydi. Daraxtlar gul ochishi haqida yangi ma'lumot oldim.? Qushlar nega erta qaytadi? Shundan so'ng o'quvchi qisqa matn tuzadi.

3. Konsept xaritalar. Bu metoddan ko'zlangan maqsad o'quvchining mavzuni to'liq idrok qilishi, sabab-natija bog'lanishini ko'rishi va matn tuzilmasini rejalash.

Masalan: "Yomg'ir" mavzusida konsept xarita. Yomg'ir → Yer namlanadi → O'simliklar o'sadi → Hayot uchun zarur → Bulutdan paydo bo'ladi.

4. Ijodiy diktantdan ko'zlangan maqsad o'quvchi shaxsiy tasavvurga tayanib yozadi. Fantaziya rivojlanadi. Metodning ko'rinishlari: tasvirli diktant, davom ettiruvchi diktant, erkin yakunli diktant qahramon yaratish diktanti.

Masalan, o'qituvchi boshlang'ich gapni beradi: "Bir kuni men sehrli bog'ga kirib qoldim..." O'quvchi shu gap asosida 6–10 gapli hikoya yozadi.

5. O'quvchilararo baholash. Bu metod o'quvchini tahlil qilishga, baholashga, fikr bildirishga o'rgatadi. Amaliy jarayon: O'quvchilar matnlarini bir-biri bilan almashtiradi. Baholash varag'i to'ldiradi: Gaplar izchilmi? Imlo xatolari bormi? Matn mavzuga mosmi? O'quvchi baholashga asoslanib matnni qayta tahrirlaydi. Natijada o'quvchi tahrir qilishni, xatoni ko'rishni, kuzatuvchanlikni o'rganadi.

6. Loyiha asosida yozish. Maqsad o'quvchilar mustaqil izlanadi, ma'lumot to'playdi va yozma hisobot tayyorlaydi. Misollar: "Mening maktabim" broshyurasi, "Mahallamiz go'zalligi" loyihasi, "Tabiatni asraylik" kompaniyasi bo'yicha takliflar. Bosqichlar:

Muammo tanlash, Ma’lumot yig‘ish, Rasm, jadval, kuzatuvlar, Hisobotni yozish, Taqdimot qilish.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutqni rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi, matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Klaster, INSERT, ijodiy diktant, peer-review, loyiha asosida yozish va raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni dars jarayonining markaziga qo‘yadi. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchisida aniq, ravon va mantiqli yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldosheva D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. G‘ulomov A. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2019.
3. Shodmonov S., Interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar. – 2021.
4. Zunnunov A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida savodxonlik. – 2022.